



Yangi 2026-yil barchamizga
muborak bo'lsin!

IJODIY PARVOZ

O'ZBEKISTON DAVLAT
SAN'AT VA MADANIYAT
INSTITUTINING
MA'NAVIY-MA'RIFIY, ILMIY,
IJTIMOIY GAZETASI

2025-yil dekabr № 12 (151) dsmi.uz nashriyot@dsmi.uz t.me/dsmi_uz

REKTOR TABRIGI



Assalomu alaykum!

Hurmatli ustozlar!

Aziz talaba-yoshlar!

Barchangizni Yangi yil bayrami bilan chin qalbidan qutlab, yuksak ehtirom hamda samimiy tilaklarimni bildiraman!

Yangi yilda barchangizga salomatlik, oilaviy baxt, omad hamda ulkan zafarlar yor bo'lishini tilab qolaman.

Yakunlanib borayotgan 2025-yil jamiyatimiz taraqqiyoti uchun muhim o'zgarishlar, ulkan yutuqlarga boy yil sifatida tarix zarvaraqlaridan joy olmoqda.

Bugun Yangi O'zbekiston san'ati va madaniyatining jahondagi obro'-e'tibori tobora yuksalib, dunyo e'tirofiga sazovor bo'lib kelmoqda. Bu o'zgarishlarning zahirida, albatta, Muhtaram Yurtboshimiz tomonidan sohaga qaratilayotgan yuksak e'tibor va g'amxo'rlik mujassam.

Qadrli do'stlar!

Yakunlanayotgan 2025-yilda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti jamoasi tomonidan bir qancha yutuqlar qo'lga kiritildi. Jumladan, O'zbekiston Kasaba uyushmalari saroyida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti ijodiy jamoasi tomonidan, Buyuk shoir va mutafakkir, davlat va jamoat arbobi Alisher Navoiy tavalludining 584 yilligiga bag'ishlangan **"NAVOIYDAN TARALGAN MANGU NAVOLAR"** nomli jonli ijrodagi teatrlashtirilgan konsert dasturi tashkil etildi.

"Adiblar xiyoboni-ma'naviyat maskani"da institutimizning taniqli ijodkorlari ishtirokida Navro'z bayrami, ezgu qadriyatlarimiz hamda milliy adabiyotimizga bag'ishlangan adabiy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazildi.

Madaniyat va san'at sohasi rivojiga munosib hissa qo'shib kelayotgan institutning bir guruh professor-o'qituvchilari "Mo'tabar ayol", "Oliy ta'lim a'lochisi", "Madaniyat va san'at fidokori" ko'krak nishoni bilan taqdirlandilar.

Institutimizning "Estrada aktyorligi san'ati" ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi Nasiba Sodiqova Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlandi.

Institutda ilmiy-tadqiqot ishlarini takomillashtirish, ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash, ilmiy salohiyatni oshirish, iqtidorli talaba-yoshlar bilan ishlash va ilmiy-tadqiqot

natijalarini ishlab chiqarishga joriy etish bo'yicha 2025-yil yakunlari tahlili shuni ko'rsatadiki, asosiy ko'rsatkichlar o'tgan yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan.

2025-yilda institutda 4 ta xalqaro va 16 ta respublika miqyosida ilmiy amaliy konferensiya o'tkazildi. Institutimizning "San'atshunoslik va madaniyatshunoslik", "Madaniyat va san'at menejmenti", "Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedralarida faoliyat olib borayotgan tajribali, ilmiy unvon va darajaga ega bo'lgan professor-o'qituvchilar tomonidan 3 ta ilmiy-metodik seminarlar tashkil qilindi.

2025-yil mobaynida institut professor-o'qituvchilari tomonidan 30 ta monografiya, shuningdek, 440 ta OAK tasarrufidagi va mahalliy jurnallarda, 11 ta Scopus Web of Science, 262 ta xalqaro ilmiy jurnallarda, 347 ta xalqaro konferensiyalarda, 244 ta respublika konferensiyalarida nashr ishlari amalga oshirildi. Institut professor-o'qituvchilarining nashr ishlari uchun jami 40 ta intellektual mulk guvohnomasi olindi.

2025-yil davomida institutning ilmiy salohiyati 48,9%dan 57,9%ga oshdi, ya'ni professor unvonini olganlar 13 nafar, dotsent unvonini olganlar 19 nafarni, jami 32 tani tashkil etdi.

Institutimiz professor-o'qituvchilari tomonidan umum-ta'lim maktablari hamda madaniyat markazlari uchun 7 turdagi milliy cholg'ularni o'rgatishga mo'ljallangan 60 ta video darslar tayyorlandi.

Madaniyat va san'at muassasalarida 4 ta kafedra filiali tashkil etildi.

48 nafar professor-o'qituvchilar tomonidan 218 ta madaniyat va san'at ta'lim muassasalarida mahorat darslari o'tkazildi. Shuningdek, masofaviy ta'lim va modul tizimi uchun zarur bo'lgan axborot texnologiyalari jihozlari sotib olindi.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti xalqaro reytinglarda ishtirok etdi. Xususan, **HE Higher Education Rankings** xalqaro reytingda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti TOP-1000 talikdan 28-o'rinni egalladi. **WURI "World University Rankings for Innovation"** **WURI 2025** Talabalarni qo'llab-quvvatlash va jalb qilish reytingida institut dunyoning 1350 ta universitetlari orasida 69-o'rinni egalladi.

"**UI GreenMetric World University Ranking**" xalqaro reytingda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti mamlakatimiz Oliy ta'lim muassasalari orasida yuqori natijalarni qayd etib, **933-o'rin** bilan TOP-1000 talikdan joy egalladi.

Bunday yutuqlarni sanasak, yana uzoq davom ettirish mumkin.

Kelgusi 2026-yilda ham fidokorona mehnat qilib, yurtimiz ravnaqi, xalqimiz farovonligi uchun bor kuch-g'ayratimiz va salohiyatimizni safarbar etamiz. Institut faoliyatini yanada takomillashtirish, provardida esa yurtimiz san'ati va madaniyati rivojiga munosib hissa qo'shish borasida ulkan reja va maqsadlarimiz bor. Ularni amalga oshirish uchun ushbu dargohda faoliyat olib borayotgan har bir xodim bir jamoa bo'lib, fidoyilik bilan maqsad sari harakat qilishi lozim.

Yana bir bor Sizni va oila a'zolaringizni yangi yil bilan muborakbod etaman! Barcha ezgu orzu-niyatlaringizga yetib yurishingizga tilakdoshman! 2026-yil xonadoningizga fayzu-baraka, quvonch va omad olib kelsin!

NODIRBEK SAYFULLAYEV,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat
instituti rektori, professor



Islohotlarimiz hal qiluvchi bosqichga kirayotgan bugungi kunda biz Konstitutsiyamizning har bir normasini davlat va jamiyat hayotida amaliy faoliyat mezoniga aylantirishimiz zarur.

Ayniqsa, yoshlarimizga Asosiy qonunimizning mazmun-mohiyatini chuqur o'rgatish, ularni konstitutsiyaviy qadriyatlar asosida yuksak ongli va vatanparvar fuqarolar, siyosiy tafakkur va huquqiy madaniyat egalari etib tarbiyalash oldimizda turgan g'oyat muhim vazifadir.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI SH.MIRZIYOYEV**

KONSTITUTSIYA – INSON QADRI, ERKINLIK, TENGLIK VA ADOLAT GAROVI

Bundan ikki yarim yil avval, 2023-yilning 30-aprel kuni yurtimiz taqdiriga daxldor, kelajagimizning yo'nalishini belgilovchi tarixiy jarayon – "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonun loyihasi bo'yicha referendum o'tkazildi. Men ham bu jarayonning eng faol ishtirokchilaridan biri sifatida qatnashganimdan faxrlanaman.

Davomi 2-betda ➡

Bugungi sonda:

Yangi O'zbekiston madaniyat va san'at menejmentida SUN'IY INTELLEKTNING AHAMIYATI

Sun'iy intellekt shaxsiylashtirilgan tavsiyalar berish imkonini ham yaratadi. Masalan, teatr yoki konsert tadbirlari bo'yicha elektron xabarnomalar va reklama kompaniyalari tomoshabin qiziqishlariga mos ravishda avtomatik yuboriladi. Natijada, muassasa resurslaridan samarali foydalanadi, tomoshabinlar qoniqadi va tashriflar soni ortadi.

3

Islom sivilizatsiyasi markazining YANGI O'ZBEKISTON KONSEPSIYASIDAGI O'RNI

Har bir inson Markazga ilk tashrifi davomida ekspozitsiyalarning mazmun-dorligi va zamonaviy tashkil etilganligining guvohi bo'ladi. Bu maskan har bir mehmonga O'zbekistonning boy tarixi va islom san'atiga chuqurroq nazar tashlash imkonini beradi. Bir so'z bilan aytganda, ushbu maskan – Yangi O'zbekistonning, "Uchinchi Renessans"ning ruhini mustahkamlovchi beqiyos ma'rifat maskanidir.

4

"BUGUN YOZING, AGAR SIZDA YOZISH IMKONI BO'LSA!"

"Kitob dunyosi" gazetasining bosh muharriri Xosiyat Rustamova bilan suhbat X.Rustamova dramaturg sifatida ham bir qancha hikoyalar, pyesalar, kinossenariylarning muallifidir. 2015-yilda "Osmonga sig'magan qush" nomli pyesasi Muqimiy nomidagi musiqali drama teatrida O'zbekiston xalq artisti Mirza Azizov rejissyorligida sahnalashtirilgan. 2016-yili "Gilam" nomli hikoyasi asosida "Ajaj jodusi" nomli kinossenariy yozgan.

5

QODIR MIRZAYEV YUKSAK ISTE'DOD SOHIBI

Ustozning oliygohimizda ish faoliyatini olib borayotganiga 50 yil to'ladi. U butun umrini xalq ma'naviyati va san'at ravnaqiga bag'ishlagan, sahnani qalb gulshaniga aylantira olgan buyuk ijodkor. 2026-yil 2-yanvar kuni domla muborak 79 yoshni qarshi oladi.

8

KONSTITUTSIYA –

INSON QADRI, ERKINLIK, TENGLIK VA ADOLAT GAROVI

◀ Boshlanishi 1- betda

Avvalo, men o'zimning kelajagim, oila va el-yurt ravnaqi uchun ovoz berdim, bu lahza qalbmida unutilmas bir mas'uliyat, hayajon va g'urur uyg'otgani hamon yodimda. Shu bilan birga, G.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent shahridagi filialida tashkil etilgan 45-referendum uchastkasida O'zLiDePning kuzatuvchisi sifatida xizmat qilish baxti ham nasib etdi. Ushbu referendum uchastkasiga kirib kelgan har bir fuqaroning ko'zida porlab turgan ishonch, qalbidan balqib chiqayotgan ezgu intilish, yurtimizning ravnaqi va barqaror rivojlanishiga o'z hissasini qo'shayotganini chuqur his etgan daxldorlik tuyg'usi menga ham beqiyos kuch bag'ishlagan edi. Men o'sha kuni xalqimizning birligi, mas'uliyati va kelajak sari dadil qadam tashlashini o'z ko'zim bilan ko'rib, guvohi bo'ldim.

Referendum natijalari esa, xalqimizni yanada quvontirdi. Butun O'zbekiston bo'ylab 16 million 667 mingdan ortiq fuqaro o'z fuqarolik burchini ado etib, ovoz berdi. Eng hayajonlisi shundaki, ushbu ovozlarning yarmidan ko'prog'i, ya'ni 15 million 34 ming 608 nafari, 90,21 foizga teng bo'lgan mutlaq ko'pchilik, referendumga qo'yilgan "Siz O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonunini qabul qilasizmi?" masalasiga qat'iy "ha" deb javob berdi. Albatta, bu so'z orqali, xalqning ertangi kunga bo'lgan ishonchi, farovon hayotga intilishi, farzandlari uchun yanada yorqin istiqbol yaratish istagining jarangdor aks-sadosi edi. Har bir ovoz go'yo yurt kelajagini yoritib turgan bir nur kabi bo'lib, ulkan ma'naviy qudratga aylangandek tuyulardi. Ana shu yakdillik, umumiy ruh uyg'onishi O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichiga dadil qadam qo'yayotganini butun dunyoga namoyon qildi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, asosiy

qonunimizga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilganiga ikki yarim yil bo'ldi. Bu yilgi "8-dekabr – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni" bayramining 33-yilligi "Konstitutsiya – inson qadri, erkinlik, tenglik va adolat garovi!" degan ezgu g'oya asosida o'tkazilmoqda. Ayniqsa, bayram yaqinlashishi bilan mamlakatimizning barcha hududlarida – mahallalar, maktablar, oliy ta'lim muassasalari va turli tashkilotlarda Konstitutsiyamizga bag'ishlangan ma'naviy-ma'rifiy, ma'no-mazmunga boy tadbirlar boshlanib ketdi. Huquqshunoslar, olimlar, adabiyot ahli, yoshlar va keng jamoatchilik ishtirokidagi davra suhbatlari, ma'naviy-ma'rifiy uchrashuvlar, tashkiliy-amaliy ishlar hamda targ'ibot-tashviqot dasturlari bir-birini to'ldirgan holda, Konstitutsiyaning mohiyati va uning hayotimizdagi o'rni, har bir fuqaroning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi mustahkam tayanch ekanini yana bir bor keng jamoatchilikka tushuntirmoqda.

Xususan, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutimizda ham mazkur qutlug' sana munosabati bilan qator ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazilmoqda. Institut professor-o'qituvchilari, talabalar, soha mutaxassislari hamda faxriy ustozlar ishtirokida Konstitutsiyaning mazmun-mohiyatini chuqur yoritib berishga qaratilgan davra suhbatlari, ochiq muloqotlar, ijodiy uchrashuvlar, tanlovlar tashkil etildi.

Institutimizning O'quv teatrida 8-dekabr O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun munosabati bilan tantanali tadbir tashkil etildi. Unda institut rektori, professor Nodirbek Sayfullayev, professor o'qituvchilar hamda talabalar ishtirok etdilar. Shuningdek, tadbirga O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Davlat va huquq instituti bo'lim boshlig'i, yuridik fanlari doktori, professor, "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati a'zosi Mirodil Bara-



tov taklif etildi. U yig'ilganlarga Konstitutsiyamizning mazmun-mohiyati, undagi asosiy tamoyillar, fuqarolarning huquq va erkinliklari, yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar haqida batafsil tushunchalar berdi. Ishtirokchilar mamlakatimizda amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy islohotlar, ularning ahamiyati va hayotimizdagi o'rni borasida yanada muhim ma'lumotlarga ega bo'ldilar.

Oliyoghimizning "Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrasida tashabbusi bilan "Konstitutsiya va yoshlar: kelajakni qurishdagi mas'uliyat va imkoniyatlar" mavzusida ochiq muloqot tashkil etildi. Ushbu tadbirga Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori Feruza Muhitdinova taklif etildi va ma'ruza qildi. U o'z ma'ruzasi orqali O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mazmun-mohiyatini talaba yoshlarga yetkazish, yoshlarda huquqiy madaniyat, vatanparvarlik ruhini oshirish, milliy qonunchilik tizimining ahamiyatini targ'ib qilish hamda fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklari haqida tushunchalar berdi.

Shuningdek, "Mening huquqlarim" mavzusida institutimiz talabalari bilan uchrashuv tashkil etildi. Uchrashuvni, Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha Jamoatchilik kengashi raisi, tarix fanlari doktori, professor, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar muvazzafisi, ustozimiz Abduxalil Mavrollov olib bordilar. Uchrashuv davomida talabalarga Konstitutsiyamizdagi asosiy tamoyillar, fuqarolarning huquq va erkinliklari, yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar haqida

Xulosa qilib aytganda, Konstitutsiya kuniga bag'ishlangan bunday tadbirlar biz yoshlarni, o'z huquq va burchlarimizni chuqur o'rganishga, ma'naviy va madaniy jihatdan rivojlanishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, tadbirlar Konstitutsiya g'oyalari asosida yanada yuksak ma'naviyatli va huquqiy ongli jamiyat qurishga bo'lgan intilishni mustahkamlaydi hamda yoshlarni faol fuqarolik pozitsiyasini egallashga undaydi.



Baxtiyor SAMIYEV,
Madaniyat va san'at
muassasalari faoliyatini
tashkil etish hamda
boshqarish ta'lim
yo'nalishi
4-bosqich talabasi,
"Islom Karimov nomidagi
davlat stipendiyasi" sohibi

batafsil tushunchalar berildi.

Konstitutsiyamizning 33-yilligi munosabati bilan Xalq ijodiyoti fakulteti talabalarining huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan "Huquq bilimdonlari" tanlovi ham bo'lib o'tdi. Tadbir fakultetda yoshlarning huquqiy ongini mustahkamlash, ularni amaldagi qonunchilik mazmuni bilan yanada chuqurroq tanishtirish hamda Konstitutsiya normalarining hayotiy ahamiyatini targ'ib etish maqsadida tashkil etildi. Tanlovni Xalq ijodiyoti fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari M. Xolmo'minov ochib berib, mamlakatimizda huquqiy madaniyatni rivojlantirish, korruptsiyaga qarshi kurashish va yoshlarning fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida ma'lumot berdi. Tadbir davomida ishtirokchilar Konstitutsiya bo'yicha test savollarini yechish, matndagi xatolarini topish, mantiqiy savol-javoblar hamda boshqa yo'nalishlar bo'yicha o'z ilmiy salohiyati va tafakkurini namoyon etdilar. Tanlov yakunida eng yuqori natijalarni qayd etgan talabalarga diplom, tashakkurnoma va esdalik sovg'alari topshirildi.

MUMTOZ MUSIQA SAN'ATI ASOSIDA

ma'naviy tarbiya berishning zamonaviy yondashuvlari

Zamonaviy jamiyatda yosh avlod tarbiyasi nafaqat ilmiy bilimlar bilan, balki ma'naviy-axloqiy qadriyatlar bilan ham boyitilishi zarur. Globallashtirish jarayonida chetdan kirib kelayotgan madaniy oqimlar, axborotning tezkor almashinuvi, ommaviy madaniyatning kuchayib borishi, yoshlarning dunyoqarashiga bevosita ta'sir qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi PQ 112-son "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida yoshlarni ma'nan barkamol, ruhan tetik qilib tarbiyalashda musiqiy nafosat olamining o'rni beqiyosdir. Shu bois, milliy ma'naviyatning mustahkam poydevori bo'lgan mumtoz musiqa san'ati bugungi kunda yoshlar tarbiyasida alohida o'rin tutadi. Musiqa ko'p asrlar davomida insonga hamroh bo'lib, uning mehnat faoliyatini, turmushini, his-tuyg'usi hamda kechinmalari, o'y-fikrlari va orzularini aks ettirib kelgan. Insoniyat jamiyatining

umumiy rivojlanishi hamda biron-bir xalqning konkret tarixiy turmush sharoitiga muvofiq holda uning musiqasi rivojlangan. Mumtoz musiqa – bu nafaqat badiiy meros, balki inson ruhiyatini poklovchi, ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlovchi, estetik didni shakllantiruvchi qudratli san'at turidir.

Mumtoz musiqa o'zining musiqiy tuzilishi, ohanglar teranligi, she'riy matnlarning falsafiy mazmuni bilan yoshlar qalbiga ezgulik, adolat, sabr-toqat, halollik, insonparvarlik kabi qadriyatlarni singdiradi. Maqom yo'llari, xususan, "Buzruk", "Rost", "Navo", "Dugoh",

"Segoh" kabi maqomlar inson ruhiyatiga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Ushbu ohanglar asrlar davomida xalqimizning ruhiy dunyosini tarbiyalab kelgan, uni ma'naviy jihatdan mustahkamlagan. Bugungi yoshlar bu musiqani tinglab, undagi nozik tuyg'ularni anglagan sari o'z milliy ildizlarini chuqurroq his etadi, qadriyatlar bilan bog'lanadi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida mumtoz musiqani ma'naviy tarbiyaga tatbiq etish uchun yangi pedagogik yondashuvlar zarur. Avvalo, kompetensiyaga asoslangan ta'lim tamoyillarida o'quvchilarning madaniy, estetik va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish ko'zda tutiladi. Musiqa o'qituvchisining o'z darslarini me'yoriy tashkil etishi bu musiqa tinglash faoliyatining mazmunli va samarali o'tishiga garovdir. Mumtoz musiqani tinglash va uni tahlil qilish orqali o'quvchi musiqiy tafakkurini kengaytiradi, badiiy idrokini mustahkamlaydi.

➡ Davomi 8-betda

DOVUDBEK NORQOBILOV,
Ashula va raqs ta'lim yo'nalishi
3-bosqich talabasi



Yangi O'zbekiston madaniyat va san'at menejmentida SUN'IY INTELEKTNING AHAMIYATI

So'nggi yillarda mamlakatimizda madaniyat va san'at sohasida keng qamrovli modernizatsiya jarayonlari olib borilmoqda. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida raqamli iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalarni joriy etish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Shu nuqtayi nazardan, madaniyat menejmenti sohasi ham zamonaviy boshqaruv metodlarini, raqamli vositalar va sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarini faol qo'llashga muhtoj. Sun'iy intellekt – bu katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish, bashorat qilish, qaror qabul qilish jarayonlarini avtomatlashtirish va interaktiv xizmatlar yaratish imkoniyatiga ega zamonaviy texnologiya.

Madaniyat muassasalarida, xususan muzeylar, kutubxonalar, teatr va madaniyat markazlarida sun'iy intellekt yordamida auditoriya ehtiyojlarini aniqlash, tadbirlarni samarali rejalashtirish, marketing strategiyalarini optimallashtirish va madaniy merosni saqlash kabi jarayonlar sezilarli darajada soddalashtirilmog'da. Shuningdek, raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali madaniyat sohasi global miqyosda raqobatbardosh bo'lib, kreativ industriyalarni rivojlantirish va yoshlar orasida madaniy ongini oshirish imkoniyatlari kengaymoqda. Shu bois, Yangi O'zbekiston sharoitida madaniyat va san'at menejmentida sun'iy intellektning ahamiyati nafaqat boshqaruv samaradorligini oshirish, balki madaniy merosni saqlash, raqamli transformatsiya va kreativ sanoatni rivojlantirish nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Sun'iy intellektning madaniyat menejmentidagi o'rni: sun'iy intellekt tahlili, bashorat, avtomatlashtirish va interaktiv xizmatlarni yaratish orqali sohani tezkor boshqarish imkonini beradi. Madaniyat va san'at muassasalarida auditoriya xatti-harakatini chuqur o'rganish faoliyatining samaradorligini oshirish va xizmat sifatini yaxshilash uchun muhim hisoblanadi. Auditoriya xatti-harakati – bu tomoshabinlarning qiziqishlari, tashrif odatlari, tadbirlarga qatnashish chastotasi va interaktiv faoliyatini o'z ichiga oladi. Shu ma'lumotlar asosida muassasa o'z xizmatlarini rejalashtiradi, marketing strategiyasini shakllantiradi va auditoriya bilan samarali aloqani yo'lga qo'yadi. Sun'iy intellekt ushbu jarayonni ancha osonlashtiradi va optimallashtiradi.

Sun'iy intellekt texnologiyalari katta hajmdagi ma'lumotlarni yig'ib, tahlil qiladi va qaror qabul qilish jarayonini tezlashtiradi. Misol uchun, onlayn chipta sotuvlari, ijtimoiy tarmoqlar, elektron so'rovnoma va feedback tizimlaridan olingan ma'lumotlar sun'iy intellekt yordamida avtomatik tarzda tahlil qilinadi. Shu orqali auditoriyaning qaysi tadbirga qiziqishi, qaysi kun va vaqtlar eng ommabopligi, va tomoshabinlar qaysi xizmatlarga ko'proq e'tibor berishi oldindan aniqlanadi. Sun'iy intellekt shuningdek, shaxsiylashtirilgan tavsiyalar berish imkonini ham yaratadi. Masalan, teatr yoki konsert tadbirlari bo'yicha elektron xabarnomalar va reklama kompaniyalari tomoshabin qiziqishlariga mos ravishda avtomatik yuboriladi. Natijada, muassasa resurslaridan samarali foydalanadi, tomoshabinlar qoniqadi va tashriflar soni ortadi. Auditoriya xatti-harakatini o'rganish orqali madaniyat muassasalari nafaqat boshqaruvni optimallashtiradi, balki marketing va xizmat sifatini raqamli transformatsiya bilan uyg'unlashtiradi. Shu bois, sun'iy intellektning qo'llanilishi auditoriya bilan doimiy va samarali aloqani ta'minlaydi, muassasani zamonaviy va raqobatbardosh tizimga aylantiradi.

Madaniy meros obyektlarini saqlash, asrash va keng

Birinchi va Ikkinchi Renessans davrida ulkan nom qozongan buyuk olimlar Muhammad al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug'bek algoritm, matematika, mantiq fanlari ravnaqiga munosib hissa qo'shib, hozirgi sun'iy intellekt rivoji uchun asos solishda qatnashgan, desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Sh.MIRZIYOYEV

auditoriyaga yetkazish zamonaviy madaniyat menejmentining eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Raqamlashtirish jarayoni ushbu obyektlarni xavfsiz saqlash, ular bilan ishlashni osonlashtirish va virtual ko'rgazmalar orqali keng ommaga taqdim etish imkonini beradi. Shu jarayonda sun'iy intellekt texnologiyalari muhim rol o'ynaydi. Sun'iy intellekt yordamida qadimiy qo'l-yozmalar, kitoblar va arxiv hujjatlari matn tanish (OCR) tizimlari orqali raqamlashtiriladi va ma'lumotlar bazasida saqlanadi. Bu jarayon inson xatolarini kamaytiradi va ish samaradorligini oshiradi. Shuningdek, sun'iy intellekt 3D modellash tirish texnologiyalari yordamida eksponatlar va yodgorliklarni virtual shaklda yaratish imkonini beradi. Shu orqali tomoshabinlar muzey yoki kutubxonaga tashrif buyurmasdan ham obyektlarni batafsil o'rganishi mumkin. Shuningdek, sun'iy intellekt shikastlangan yoki yo'qolgan tasvirlarni tiklashda ham qo'llaniladi. Avtomatik algoritmlar yordamida eksponatlar rasmlarini qayta tiklash, ranglarni va shakllarni aniqlash mumkin. Bu madaniy merosni asrash va kelajak avlodlarga yetkazish borasida katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari, sun'iy intellekt ma'lumotlarni kataloglashtirish va izlash jarayonini soddalashtiradi. Raqamli platformalarda foydalanuvchilar qidiruv so'rovlariga mos eksponatlarni tezkor topishi mumkin. Shu bilan birga, raqamlashtirilgan madaniy merosni global ilmiy va madaniy maydonga chiqarish imkonini yaratadi, bu esa O'zbekiston madaniyatining xalqaro miqyosdagi ta'sirini oshiradi.

Madaniyat va san'at muassasalari faoliyatining samaradorligi auditoriya bilan ishlash qobiliyatiga bog'liq. Tadbirlar va ko'rgazmalar auditoriya qiziqishlariga mos bo'lmasa, tashriflar soni kamayadi va muassasaning obro'si pasayadi. Shu sababli marketing va tomoshabinlarni tahlil qilish muassasa faoliyatining muhim qismidir.

Sun'iy intellekt texnologiyalari musiqiy kompozitsiyalar, grafik dizayn, animatsiya va teatr sahnalari

MO'MINMIRZO XOLMO'MINOV,
"Madaniyat va san'at menejmenti"
kafedrasi dotsenti,
xalq ijodiyoti fakulteti
yoshlar bilan ishlash bo'yicha
dekan o'rinbosari,
OZODA SUVONOVA,
"Madaniyat va san'at sohasi menejmenti" mutaxassisligi
1-bosqich magistranti

yaratishda yordam beradi. Masalan, SI tizimlari ijodkorlarga ranglar, shakllar yoki musiqiy melodiyalar bo'yicha tavsiyalar berishi mumkin. Bu ijodiy ishlarni tezlashtiradi va yangi eksperimentlar qilish imkonini beradi. Shuningdek, sun'iy intellekt auditoriya qiziqishlari va xatti-harakatlarini tahlil qiladi. Shu ma'lumotlar asosida yangi sahna asarlari, konsertlar yoki ko'rgazmalar repertuari ishlab chiqiladi. Natijada, tadbirlar auditoriya talabiga mos bo'lib, muvaffaqiyatli o'tadi. Virtual va interaktiv platformalar orqali ham kreativ jarayonlar qo'llab-quvvatlanadi. Masalan, virtual ko'rgazmalar, interaktiv teatr sahnalari yoki onlayn musiqiy loyihalar tomoshabinlar bilan aloqani kuchaytiradi va san'at mahsulotlarini global auditoriyaga yetkazadi. Bundan tashqari, SI tizimlari ijodiy jarayonlarni boshqarishda resurslarni optimal taqsimlashga yordam beradi. Xodimlar, texnika va moliyaviy imkoniyatlar samarali ishlatiladi, natijada kreativ loyihalar muvaffaqiyat bilan amalga oshiriladi.

Yangi O'zbekiston madaniyat va san'at sohasida innovatsiyalar va raqamli transformatsiya jarayonlarini faollashtirmoqda. Shu sharoitda sun'iy intellekt va zamonaviy texnologiyalarni qo'llash sohaning samaradorligini oshirishga katta imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, ayrim muammolar ham mavjud bo'lib, ularni hal qilish kelajakdagi rivojlanishning muhim sharti hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonning madaniyat siyosati innovatsion texnologiyalarni joriy etishga keng yo'l ochadi. Yosh avlod raqamli xizmatlardan foydalanishga tayyorligi bilan auditoriya imkoniyatlarini kengaytiradi. Ko'plab muzeylar, kutubxonalar va madaniyat markazlari modernizatsiyaga tayyor bo'lib, raqamli transformatsiyani qabul qilishga intilmoqda. Shu bilan birga, madaniy merosni raqamlashtirish va virtual ko'rgazmalar orqali xalqaro auditoriyaga taqdim etish imkoniyati mavjudligi global maydonda ham o'z o'rnini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, ayrim muammolar ham mavjud. Sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarni samarali qo'llash uchun malakali kadrlar yetishmaydi. Ba'zi madaniyat muassasalarining texnik bazasi zamon talablariga javob bermaydi. Sun'iy intellekt tizimlarini joriy etish katta moliyaviy resurslarni talab qiladi, va innovatsion platformalarni yaratish va ulardan samarali foydalanish jarayoni murakkab hamda vaqt talab qiluvchi jarayon hisoblanadi.

Yangi O'zbekiston sharoitida madaniyat va san'at menejmentida sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarini joriy etish nafaqat boshqaruv samaradorligini oshirish, balki madaniy merosni saqlash, kreativ jarayonlarni rivojlantirish va auditoriya bilan samarali aloqani yo'lga qo'yish imkonini beradi. Raqamli transformatsiya va sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari madaniyat muassasalariga global maydonda raqobatbardosh bo'lish, yosh auditoriya bilan interaktiv aloqani kuchaytirish va innovatsion xizmatlarni joriy etish imkonini yaratadi. Madaniy meros obyektlarini raqamlashtirish, virtual ko'rgazmalar va interaktiv platformalarni yaratish orqali muassasalar o'z xizmatlarini keng auditoriyaga yetkazadi va xalqaro miqyosda tan olinadi. Shuningdek, sun'iy intellekt kreativ jarayonlarni qo'llab-quvvatlashda ham muhim rol o'ynaydi. San'at industriyasi doimo innovatsiyaga asoslangan bo'lib, sun'iy intellekt yordamida musiqiy kompozitsiyalar, teatr sahnalari, grafik va vizual loyihalar yaratishda ijodkorlarga tavsiyalar berish mumkin. Bu jarayon yangi eksperimentlar va innovatsion loyihalarni amalga oshirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt Yangi O'zbekiston madaniyat va san'at menejmentida strategik vosita sifatida xizmat qiladi. U boshqaruvni avtomatlashtiradi, kreativ jarayonlarni rivojlantiradi, auditoriya ehtiyojlarini hisobga oladi va madaniy merosni saqlashni ta'minlaydi. Shu tariqa, madaniyat va san'at sohasining zamonaviy va raqobatbardosh tizimga aylanishi uchun sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining qo'llanilishi muhim ahamiyatga ega.



ISLOM CIVILIZATSIYASI MARKAZINING

Yangi O'zbekiston konsepsiyasidagi o'rne

tarixiy xotirani tiklash, milliy o'zlikni mustahkamlash va ma'naviy merosni ilmiy asosda qayta baholashdir. Barchaga ma'lumki, sivilizatsiyalar uchrashgan markaziy geografik makonda joylashgan vatanimiz, qadimdan jahon sivilizatsiyasining o'chog'i bo'lib, dunyo ilm-fani va madaniyati rivojiga munosib hissa qo'shib kelgan. Yurtimizda ikki buyuk Renessans, uyg'onish davrlari o'tgan bo'lib, ushbu davrlarda butun jahondagi ilmiy maskanlarning eng qadimgilari yuzaga kelgan. Jumladan, "Buxoroda 300 dan ortiq, Samarqandda esa 120 ga yaqin, Xivada 64 ta o'z davrining universitetlari hisoblangan madrasalar faoliyat ko'rsatganini keltirish kifoya". Bu raqamlar faqatgina Birinchi Renessans davriga tegishli bo'lib, Ikkinchi Renessans ya'ni "Temuriylar Renessansi"ga kelib yanada ziyodalashadi.

Birinchi Renessans davrida barcha olimlarni yagona joyga, o'z bag'riga yig'a olgan dargoh bu – Xorazm Ma'mun akademiyasi edi. Amir Temur barpo etgan saltanat esa, Ikkinchi Renessans mutafakkirlari uchun yagona ziyo maskani bo'ldi. Yuqoridagi ikki davr nafaqat O'zbekiston, qolaversa, butun jahon tamaddunidagi buyuk davrlar bo'lib qoldi. Bu haqida yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ta'lim berish bo'yicha ikkinchi Butunjahon konferensiyasi ochilish marosimidagi nutqida: "Diyorimizdan yetishib chiqqan atoqli allomalar, algebra fani va algoritm tushunchasiga asos solgan Al-Xorazmiy, mineralogiya fanining tamal toshini qo'ygan Al-Beruniy, dunyoda Avitsenna nomi bilan tanilgan mashhur tibbiyot olimi Ibn Sino, 1018 ta yulduzning koordinatlari va harakatini aniq belgilab bergan buyuk astranom Mirzo Ulug'bek, Nil daryosining sathini o'lchovchi noyob uskuna yaratgan alloma Ahmad al-Farg'oniy kabi ulug' ajdodlarimiz o'zlarining bebaho asarlari, ilmiy va ijodiy kashfiyotlari bilan O'rta arlardagi Birinchi va Ikkinchi Sharq Renessansi rivojiga ulkan hissa qo'shganlar", – deya to'xtalib o'tgani bejizga emas.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek,

diyorimiz tarixining buyukligi, moddiy va ma'naviy, ilmiy merosining ulkan va be-beho ekanligi, shuningdek, butun jahonga ziyo nurini yoygan markazlari borligi hamda Islom madaniyatining oltin asrlarini vujudga keltira olganligi haqiqatdir. Lekin XX asr davomida siyosiy jarayonlar, mafkuraviy bosimlar, tarixning noto'g'ri talqin etilishi, qo'lyozmalar tarqalib ketishi, diniy ta'limning cheklanishi kabi bir nechta sabablar bois, ushbu haqiqatlar soya ostida bo'lib, oshkor etilmay kelingan. Bugun esa, tariximizni, ushbu haqiqatlarni Yangi O'zbekiston yoshlariga, Uchinchi Renessans avlodlariga, shu bilan birga xorijiy mehmonlarga hamda butun jahonga to'la-to'kis namoyish etish vaqti keldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan "Tarixiy xotirasi bor millat – buyuk millatdir" tamoyili yangi davlatchilik konsepsiyasining ideologik asosiga aylandi. Ana shu jarayonning eng muhim ilmiy-ma'rifiy poydevori sifatida tashkil etilgan O'zbekiston Islom sivilizatsiyasi markazi mamlakatning ma'naviy siyosati, xalqaro nufuzi va ilmiy salohiyati uchun strategik ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu majmua O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 23-iyundagi

"O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzurida O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga binoan boshlanib, 2018-yilgi Ramazon hayiti kuni Markaz poydevoriga tamal toshi qo'yilgan.

Poytaxtning tarixiy Qorasaray ko'chasida, o'rta asrlar Samarqand-Hirot me'morchilik uslubida qad rostlagan Markaz binosi 10 gektarga yaqin maydonda joylashgan. Markaz binosining to'rt tomonida balandligi 34 metrli peshtoqlar bunyod etilgan, o'rtada 65 metrli mahobatli gumbaz qurilgan. Markaz binosi tarixiy obidalariga uyg'un shaklda bunyod etilgan. Gumbaz va peshtoqlar, naqshlarning o'zaro uyg'unligi unga alohida ko'rk va salobat bag'ishlagan. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan tashkil etilgan markaz islom sivilizatsiyasining bebaho merosini asrab-avaylash va targ'ib qilishga bag'ishlangan noyob manbalar, ilmiy tadqiqot va ta'lim yo'nalishlarini bir joyga jamlagan tariximizdagi ilk majmua bo'ldi. Ushbu tarixiy majmuaga birinchilardan bo'lib, Buyuk Ipak yo'li chorrahasida birlashgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari hamda Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev hamrohligida tashrif buyurdilar. Ular tashrif chog'ida, Islom tamaddunining betakror ma'naviy gavhari hisoblangan Usmon Mus'hafi saqlanayotgan Qur'oni karim zalida bo'ldilar. Shuningdek, yetakchilar "Islomdan avvalgi sivilizatsiyalar", "Birinchi Renessans", "Ikkinchi Renessans" hamda "Yangi O'zbekiston – yangi Renessans" bo'limlari bilan tanishdilar.

Har bir inson markazga tashrif buyurarkan, buyuk allomalarimiz Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Abu Mansur Moturidiy, Bahouddin Naqshband va boshqa ulug' ulamolarning boy ilmiy va ma'naviy merosi keng yoritilganligining guvohi bo'ladi. Mar-

kaz faoliyatining asosiy maqsadi e'tiqodi islom dini bilan bog'liq boy va noyob merosni ilmiy asosda har tomonlama chuqur o'rganish, yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk alloma va mutafakkirlarning hayoti va ilmiy-ijodiy faoliyati haqida yaxlit tasavvur uyg'otish, ular bilan xalqimiz va jahon jamoatchiligini keng tanishtirish, xalqaro miqyosda dinlararo va sivilizatsiyalararo muloqotni yo'lga qo'yish, islom dinining insonparvarlik mohiyatini ochib berish, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish, yosh avlodni gumanistik g'oyalar, milliy g'urur va iftixor ruhida tarbiyalashdan iboratdir. Shuni unutmaslik kerakki, Islom sivilizatsiyasi markazi tarixiy haqiqatni tiklash va ilmiy asoslash uchun muhim qadamdir. Bu orqali yoshlar islom merosini radikallikdan ajratgan holda ilmiy talqin qila olishadi. Shuningdek, Markaz negizida muhim qo'lyozmalar jamlanadi va restavratsiya qilingan holda raqamlashtiriladi. Qolaversa, O'zbekistonning ilmiy merosini jahon ilmiy muomalasiga qaytarish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi bunday imkoniyatdan oqilona foydalanmoqda. 2025-yil 28-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, Ta'limni rivojlantirish ilmiy-metodik markazi hamda Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha Islom tashkiloti (ICESCO) hamkorligida "Madaniyat va san'at ta'lim tashkilotlarida o'qitishning zamonaviy metodlari: yutuqlar va muammolar" nomli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya bo'lib o'tdi. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada Markaziy Osiyo davlatlari hamda Ozarbayjon Respublikasining bir nechta professor-o'qituvchi va olimlari ishtirok etdilar. Konferensiyadan so'ng xorijlik mahoratli pedagoglar Madaniyat vazirligi tasarrufidagi bir nechta ta'lim muassasalarida "Mahorat darslari" hamda ijodiy uchrashuvlar o'tkazishdi. Shuningdek, xorijlik delegatsiya a'zolari Madaniyat vazirligining birinchi o'rinbosari Avaxxon Tadjixanov hamrohligida O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markaziga tashrif buyurishdi. Markazga avvalo davlat rahbarlari, so'ngra ularning vakillari tomonidan amalga oshirilgan tashriflardan anglash mumkinki, Markaziy Osiyo davlatlari hamda Ozarbayjon Respublikasi o'rtasida do'stlik rishtalari tobora mustahkamlanib, izchil va oqilona siyosat yuritilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan barpo etilgan Islom sivilizatsiyasi markazi – mamlakat ilm-ma'rifat va madaniy merosni rivojlantirishga qaratilgan yuksak e'tiborning amaliy ifodasi bo'lib, mintaqada ilmiy-ma'naviy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qilayotgan muhim platformadir". Darhaqiqat, har bir inson Markazga ilk tashrifi davomida ekspozitsiyalarning mazmundorligi va zamonaviy tashkil etilganligining guvohi bo'ladi. Bu maskan har bir mehmonga O'zbekistonning boy tarixi va islom san'atiga chuqurroq nazar tashlash imkonini beradi. Bir so'z bilan aytganda, ushbu maskan – Yangi O'zbekistonning, "Uchinchi Renessans"ning ruhini mustahkamlovchi beqiyos ma'rifat maskanidir.

*Bilimni buyuk, uquvni ulug' bil,
Bu ikkisi tanlangan bandasini ulug'laydi.
Zakovat qaerda bo'lsa, ulug'lik bo'ladi,
Bilim kimda bo'lsa, buyuklik oladi.*

Yusuf Xos HOJIB



*Ovozingning emas, so'zingning darajasi bilan
yuksalgin.*

Axir gullarni momaqaldiroq emas, yomg'ir o'stiradi.

Jaloliddin RUMIY

“BUGUN YOZING, AGAR SIZDA YOZISH IMKONI BO‘LSA!”

“Kitob dunyosi” gazetasining bosh muharriri Xosiyat RUSTAMOVA bilan suhbat

– “Xosiyat” hujjatli filmni tasvirga olish jarayonlari boshlanganida birinchi kimni esladingiz?

– Hech qachon unutishim mumkin bo‘lmagan va hamisha xotiralarimda abadiy yashaydigan odam bor. Bu mening Bobom. Men aqlimni taniganimda, birinchi bobomni taniganman. Shu bilan mening hayotim boshlangan. Bobomning birinchi nabirasi edim. Va birinchi mehr-muhabbatga ega bo‘ldim. Ularning mehribon nigohlarida katta bo‘lganman. Mendan keyin qancha nabiralar ko‘rishgan, ammo, men birinchi farzand, birinchi nabira bo‘lib qolganman. Ayniqsa, u bu narsalar yoza boshlaganimdagi bobomning xursandchiliklarini ta’riflab berolmayman. Menimcha, meni odam bo‘lishimga bobomning yaxshi niyatlari sabab bo‘lgan. Hali kichkinaligimdan, abadiy yashash nimaligini bilmagan paytlarimdan, bobom kinga bo‘lsa ham “Men o‘lmayman, manashu nabiram bilan abadiy yashayman”, deganlar. Shuning uchun xorijlik adabiyotshunoslar, ismi sharifimni aytish qiyinligi sabab, tahallus olish taklifini aytishganda, o‘ylamasdan rad etdim.

– Yoshlikdan adabiyotga ixlos qo‘yib, isyonkor ovoz bilan kirib kelishni xayol qilib katta bo‘lganmisiz?

– Menda o‘qish va yozishdan boshqa orzu bo‘lmagan. Umrin davomida xuddi uydan-uyga ko‘chgan kabi, faqat yozishdan o‘qishga, o‘qishdan yozishga ko‘chib yashaganman. Faqat yoza olmay qolgan vaqtlarimdagina ko‘z yoshlarimga ko‘chishga to‘g‘ri kelgan, bu haqida keyingi kitobimda batafsil yozilgan... U paytlar ovozlarni farqlamagan bo‘lishim anig‘u, ammo, yaxshi asarni ajrata olganman. Chunki, Pushkinni o‘qiganimda, hamisha, kitob o‘qiyotganimni unitib qo‘yganman. Men o‘zimni asar qahramonlarining biriday tasavvur qilardim. Eng qizig‘i, asardagi hayotimning ham nima bilan yakunlanishini bilardim. Buning natijasida esa atrofni butkul unutardim.

– Toshkent davlat dorilfununining jurnalistika fakultetida tahsil olishingiz bugungi darajangizda qanchalik ahamiyatli?

– Albatta, aytishim mumkinki, universitet meni qayta tarbiyalagan. Universitetga qabul qilinganimda, qancha ko‘p kitob o‘qigan bo‘lishimga qaramay, sanoqli adabiyot bilan tanish edim. Adabiyotning ustunlarini shu yerda tanidim. Lotin Amerika adabiyotini bilish, bu men uchun hamma narsaga ega bo‘lish edi. Men hozir o‘ylayman, agar bu vaqtgacha, men XIX asr Rus adabiyotini o‘qimagan bo‘lganimda, bemalol aytish mumkinki, men Lotin Amerika adabiyotiga yaqinlasholmas edim. Chunki, bu adabiyot sendan tayyorgarlikni talab qiladi. Universitet menga yo‘l ko‘rsatdi, yurishni esa o‘zim o‘rgandim.

– Hozirda “Kitob dunyosi” gazetasining bosh muharririsiz. Ba’zi paytlarda bosh muharrirning gazetani shaxsiy mulki sifatida qarashiga qanday fikr bildirasiz?

– Agar bu yaxshi ma’nodagi qarash bo‘lsa, buning nimasi yomon? Axir bizning mentalitetimizda bor, shaxsiy deb qaragan narsalarimizni ko‘proq muhabbat bilan yaxshi ko‘ramiz. Ko‘proq ishlaymiz, ko‘proq jon kuydiramiz, avaylaymiz, chunki, o‘zimizniki ekanini ichimizdan xis qilamiz. Faqat, biz uni o‘zimizning mayda manfaatlarimizga xizmat qildirsak, bu albatta, adabiyotning, xalqning sho‘ri!

– She’rlaringizda ko‘proq najot qidirayotgan ijodkorga o‘xshaysiz?

– Bo‘lsa, bordir. Balki, o‘zimni qidirayotgandirman. Mana shu kichkina hayotda, nimadir qoralasam, bu o‘zimni topishga qo‘yilgan qadamlardan bittasi va asosiysi! Bu dunyodan boshqa narsa qidirishni tasavvur qilolmayman. To‘g‘ri, yana

bir narsa bor, u ham bo‘lsa, o‘zimdan zerikmaslik choralari haqida o‘ylayman.

– Kayfiyatingizni ko‘tarish uchun kimning qo‘shiqlariga raqs xirom aylab turasiz?

– O‘yinni yaxshi ko‘radiganlar meni kechirsin, men o‘yinni yomon ko‘raman. Eshitsam, bir-ikkita qo‘shiqlar bor. Ammo, asosan musiqa tinglayman. Motsart, Betxoven, Bax va yana Erik Sati yoqadi. Mening nazarimda, musiqalar sening kayfiyating bilan hisoblashadi. Ba‘zan, ruhingni osmondan yuqoriga olib chiqsa, ba‘zan, shu qadar sokinlik in‘om etadiki, yoningda o‘tirgan odam o‘zing ekaningga ishonging kelmaydi.

– “Men hamma narsani ikki dunyo bilan bog‘laydigan odamman. Bugun ham ikki dunyo ichida yuribman” – degandingiz. Insonning ruhini shu darajada qiynoqqa solishdan muddao nima?

– Aynan shu vaziyatlar sening kim ekaningni oshkor qiladi. Sergak torttiradi va seni ichki dunyoing bilan bog‘laydi. Aslida, ikkisining o‘rtasida turish juda qiyin. O‘zing bilmagan holda boshqa ko‘chalarga kirib ketib qolishing mumkin. Ammo, mana shu vaqtda aqling yorishadi, tafakkuring uzoqlarga nazar tashlaydi va o‘zing ham bilmagan holda ko‘zing ochiladi. Mana shu ko‘zning ochilishi seni odam qiladi.

– Dunyo adabiyoti maydoniga tom ma’noda qadam qo‘ygan yozuvchisiz. Bu oson emasligi ma’lum. Ammo, O‘zbekistonda hech nimaga erisha olmay, xorijni qumsaydigan, go‘yoki “buyuk is’tedod sohib”lari bo‘lgan yoshlarimiz talaygina. Ularga maslahatingiz?

– Yozishdan yaxshisi yo‘q! Yozishdan muhimroq narsa ham yo‘q shoir va yozuvchi uchun! Mana shu narsani chuqur anglab yetganingda dunyo eshiklari ochiladi shekilli. Ba‘zan do‘stlarimiz so‘rashadi, “O‘zingizni yo‘qotib qo‘ymayapsizmi? “Yo‘q, o‘zimni yo‘qotib qo‘yganim yo‘q. Chunki, men yozishdan yaxshi narsa yo‘qligini tushinib yetganman. Agar asarlaringizning peshonasiga qaysidir tilga tarjima qilinishi va kitob holida chop etilishi yozilgan bo‘lsa, u albatta bo‘ladi. Siz hozir bu haqida o‘ylashdan ko‘ra yozing! Siz kutmagan joyda, kutilmaganda kitoblaringiz chiqadi, asarlaringiz dunyoning hamma tillariga tarjima bo‘ladi. Faqat buning uchun bugun yozing, agar sizda yozish imkoni bo‘lsa!

– Ijodda shogird tayyorlab bo‘lmaydi, kabi bahonalarni eshitamiz. “Ustoz-shogird” an‘analariga qanday qaraysiz?

– Hamma narsani o‘rgatish, o‘rganish mumkindir, ammo yozishni o‘rgatib bo‘lmaydi. Agar yozish odamga yuqoridan berilmagan bo‘lsa, befoyd! Bu hecham bahona emas. Ustoz senga uni o‘qi, buni o‘qima, deyishi mumkindir, lekin, senga yuragingga qarashni o‘rgata olmaydi. Chunki, yurak sening ichingda.

– Abdulla To‘qay: “Oqlayman deb dunyoni kirlanib bitdim o‘zim” desalar, Halima Xudoyberdiyeva: “Rasululloh to‘g‘rilolmay ketgan dunyoga, nechun tahrir qalamimni tekkizaman men?!” – deya afsusli satrlarni bayon qilganlar. Ijodkorning “to‘g‘irlovchi” bo‘lishga urinishi joizmikan?

– Bu juda murakkab savol. Ushbu savolga ham ilmiy, ham diniy tarafdin javob berish mumkin. Ammo qancha kitoblardan misollar keltirib, fikrlaringizni asoslab berishga qanchalik harakat qilmang, baribir bu savol ochiqliciga qolaveradi...

Suhbatdosh: **Asilbek QOLQANATOV, “Madaniyatshunoslik” yo‘nalishi tayanch doktoranti**



MA’LUMOT O‘RNIDA:

Rustamova Xosiyat Islomaliyevna 1971-yil Namangan viloyati Chust tumanining Olmos qishlog‘ida tug‘ilgan. 1993-yil Toshkent Davlat universiteti (hozirgi O‘zbekiston Milliy universiteti)ning Jurnalistika fakultetini tamomlagan. 2003-yil O‘zbekiston Milliy universitetining O‘zbek filologiyasi fakulteti qoshidagi Oliy adabiyot kursida tahsil olgan.

U bir necha xalqaro she’riyat festivallarida ishtirok etib kelayotgan o‘zbekistonlik eng faol ijodkorlaridan. 2012-yil Turkiyaning Bursa shahrida o‘tkazilgan tanlovining she’riyat yo‘nalishi bo‘yicha g‘olib bo‘lgan. 2015-yil Ozarbayjonning Mikoil Mushfiq hamda nufuzli mukofot – Rasul Rizo nomidagi xalqaro mukofoti bilan taqdirlangan. Naji Naaman nomidagi xalqaro mukofot sovrindori (2021), Ayova universiteti Xalqaro yozuvchilar dasturi rezidenti (2021) va 2018-yilda Tailandda bo‘lib o‘tgan xalqaro adabiyot festivalida nazm yo‘nalishi bo‘yicha eng oliy mukofot sohibasi bo‘lgan.

She’riyatdan tashqari yozuvchi, dramaturg sifatida ham bir qancha hikoyalar, pyesalar, kinossenariylarning muallifidir. 2015-yilda “Osmonga sig‘magan qush” nomli pyesasi Muqimiy nomidagi musiqali drama teatrida O‘zbekiston xalq artisti Mirza Azizov rejissyorligida sahnalashtirilgan. 2016-yili “Gilam” nomli hikoyasi asosida “Ajaj jodusi” nomli kinossenariy yozgan. Mazkur film rejissyor Hilol Nasimov tomonidan tasvirga olinadi va qisqa vaqt ichida o‘zining ijtimoiy dolzarbligi bilan soha mutaxassislari tomonidan yuksak baholanadi.

Islomaliyevna tarjimon sifatida Marina Svetayeva, Yevgeniy Yevtushenko, Anna Axmatova, Boris Pasternak, Ramiz Ravshan, Nigor Refibeyli, Rizo Halil, Fozil Kisakurak, Xusnu Dog‘larja va boshqa ko‘plab jahon shoirlarining she’rlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan. 2015-yildan buyon ommabop “Kitob dunyosi” gazetasining bosh muharriri lavozimida ishlab kelmoqda. O‘zbekiston va Ozarbayjon (2019) Yozuvchilar Uyushmasi a‘zosi hamda Ozarbayjon Jurnalistlar Uyushmasi a‘zosi (2021) hisoblanadi. She’rlari dunyoning 30 dan ortiq tillarga tarjima qilingan va kitoblari bir necha xorijiy davlatlarda chop etilgan.

O‘zbekistonda “Osmondagi uy” (1997), “Najot” (2003), “Rido” (2004), “Yupanch” (2005), “Devor” (2006), “Avgust” (2008), “Ishg‘ol” (2011), “Unutilgan yillar” (2014), “Bebosh bulutlar” (2019), “Tunning boshi qorong‘u” (2021), “Sargardon soyalar” (2021), “Jigarrang daftar” (2021), va yaqindagina qoraqalpoq tilida “Ochiq derazalar” (2022) nomli kitobi nashr etildi.

Shuningdek, Turkiyada “Ertasi yo‘q kunlar” (2006), “Ikki quyosh” (2020), Ozarbayjonda “Qo‘rqinch” (2008), “Layli daraxtlar” (2020), “Ismi Lala edi u qizning” (2020), “Majnunol” (2020), Buyuk Britaniyada “Rangin ko‘z yoshlar” (2020), Ukrainada “Hovuchimdagi yulduz” (2021), Belorusiyada “Tushovlangan shamol” (2021), Rossiyada “Sakkiz” (2021), Serbiyada “Ko‘ngil izidan” (2021), Viyetnamda “Shamolning vajohati” (2020), Qozog‘istonda “!Muhabbat anatomiyasi” (2019), Tojikistonda “Shabbo” (2020), Qrimda “Tutqunlikdagi ozodlik” (2021), turkman tilida “Bir hovuch shamol” (2021) kabi kitoblari nashr etilgan.

2004-yil “Shuhrat” medali, 2016-yil “O‘zbekiston mustaqilligiga 25 yil” esdalik nishoni bilan taqdirlangan.



OQILA ORTIQBOYEVA,
“Madaniyatshunoslik”
mutaxassisligi
1-bosqich magistranti



ROZIYA RAVSHONBEKOVA,
“San’at jurnalistikasi”
ta’lim yo’nalishi
2-bosqich talabasi



ELYOR NAZAROV,
“Madaniyat va san’at muassasalarini
tashkil etish hamda boshqarish”
ta’lim yo’nalishi (sirtqi)
4-bosqich talabasi

Sirli surat


Namoyishga qo’yildi ajoyib surat,
Xatolik bormi yo bilmadim men ham.
Rassomni chorlashga topdimda jur’at,
Ishonch-la so’zladim: “Nimasidir kam”.

Surat sirli edi qanday ma’no bor,
Rassomni rasmdan ko’ngli to’q edi.
Termulib qaradim, tortdi e’tibor,
Qarang-ki, eshikda tutqich yo’q edi.

Tasvirlangan edi suratda inson,
Tutqichsiz eshikni qoqardi asta.
Intilardi ochilsa ichkari tomon,
Ochilmasdi, eshikda yo’q edi dasta.

Tushunmadim qanday ekan ma’nosi,
Yaroqsizmi shunda tutqichsiz eshik?
Haligi insonning fikri a’losi,
Ochish edi eshikda kichik bir teshik.

Rassom miyig’ida jilmayib qo’ydi:
“Bilmaysiz, bu surat ijod beshigi”.
Ma’nosiz rasmni shundayin yo’ydi:
“Axir bu tutqichsiz – qalbning eshigi”.



Hayot haqiqati

Darddan yaralgandir asli she’rlarim,
Yozganlarim tushuna olmassiz balki,
Sezmassiz birovning qayg’ularini,
Hayot hikoyasi qanchalar dardli.



Baxtli bolavermas ekan har inson,
Gohida yig’lar juda ham qattiq,
Orzulari ham bo’larkan xazon,
Nahotki, haqiqat bunchalar achchiq.

Sevib qolmadim

Ajabo, taqdirning izmi qiziqda,
Faromush xayoldan aqlim ham toldi.
Men sizni qalbim-la sevib qolmadim,
Ruhim ruhingizga bo’g’lanib qoldi.

Ko’zim ko’zingizga tushgan paytida,
Netay boshlanadi yurakda tergov.
Sizdan kecholmaydi bu dilim sira,
O’rtada jonimni qo’ysam ham garov.

Ishqimiz dostonmi, yoki bir qissa,
O’sha eski bog’dan gul olib keling.
Men sizdan so’ramam shoh asarlarni,
Baxt degan bir so’zdan she’r yozib bering.



GULZIYNAT BABASHOVA,
“San’at jurnalistikasi”
ta’lim yo’nalishi
1-bosqich talabasi

Darddan yaralgandir asli she’rlarim,
Baxtli kunlar ortida g’amlar yashirin,
Foyda bermas ekan ohu zorlarim,
Derlar, hayot shunisi bilan shirin.

Soxta do’st

Davlatning deb, yoningda,
Yurganlarni do’st dema,
Sen yig’lasang, shodlanib,
Kulganlarni do’st dema.

Oldingda seni maqtab,
Ortingdan ko’p yomonlab,
Og’ir kuningda tashlab,
Ketganlarni do’st dema.

Puling bo’lsa quchoqlar,
G’ariblashsang uzoqlar,
Yo’llaringga tuzoqlar,
Qurganlarni do’st dema.

Orzu qilar g’amingni,
Kutar ojiz damingni,
Yutug’ingmas, kamingni,
Ko’rganlarni do’st dema.

Ishq qimmatli, arzonmas,
Mehr bog’i xazonmas,
Chin do’st topmoq osonmas,
Dushmanlarni do’st dema.

Ig’vo ko’rpasin yozib,
Quvonsang esdan ozib,
Yuzingga oyoq bosib,
O’tganlarni do’st dema.

Voz kechar o’z baxtidan,
Qaytar qasam, ahdidan,
Oqibatning taxtidan,
Tushganlarni do’st dema.

Elyor, quvgin g’aflatni,
Unutmagin shafqatni,
Bu dunyoda hasadni,
Quchganlarni do’st dema.

Do’stlik – Xudodan ato,
Tanlashda qilma xato,
Sen vafo qilsang, jafo,
Qilganlarni do’st dema.



HAYOTIMNING MUSTAHKAM TAYANCHI

Ota – farzandning orzulariga tayanch boʻluvchi, hayotning har burilishida yoʻl koʻrsatib turuvchi eng mustahkam suyanchdir. Har doim onalar haqida koʻp, otalar haqida esa, kam gapiramiz. Ota farzandlarining hayotida qanday oʻringa ega? Har bir inson hayotida qadrlı, oʻchmas iz qoldiruvchi, unga kuch, ishonch va qatʼiyat bagʻishlaydigan ulugʻ siymodir.

“Ota” – bu faqatgina bir soʻz emas. Bu soʻzning zamirida mehr, masʼuliyat, fidoyilik va suyanish tuygʻusining butun bir olami yashirin. Ota farzandining yoʻlini yoritib turuvchi sobit tayanch, oila qalʼasining qoʻrgʻoni, hayotning eng oʻgir lahzalarida ham yoningda turadigan sokin kuchdir. Ota mehrini kam koʻrsatgandek tuyulsa-da, qalbida farzandi uchun butun dunyoni koʻtarib yura oladigan buyuk muhabbat mujassam.

Ota – farzandning orzulariga qanot, hayotiga esa, yoʻnalish beruvchi ustozdir. Otalarning yelkalari hayotda odamning eng tinch, eng ishonchli his qiladigan qoyalari hisoblanadi. Uning qoʻllari qoʻpoldek tuyuladi, lekin aynan shu qoʻllar farzandi yiqilmasligi uchun butun dunyoni ushlab turadi. U kam gapiradi, lekin har bir sukunati ortida cheksiz mehr, talaygina tashvish va orzular yashirin boʻladi. Farzandning kichik kulgusi ham unga kuch boʻladi, kichik tashvishi ham uning yuragini bezovta qiladi.

Ota baʼzan charchaydi, baʼzan ogʻirliklarni ichiga yutadi, lekin biron marotaba “qila olmayman” demaydi, chunki u uchun oilasi hayotining eng aziz neʼmatidir. Ota – bizga qanday yurishni emas, qanday inson boʻlishni oʻrgatadigan buyuk maktab. Uning mehrini har doim sezmasligimiz mumkin, ammo har bir yutugʻimizda, har bir qadamimizda uning yelkasiga tayanib borayotganimizni his qilamiz. Ota haqida gap ketganida, doim koʻzimga yosh keladi, chunki otam mening hayotimdagi eng katta kuchdir. Otamning suyanadigan yelkasi menga dalda beradi. Otam borligi meni himoya qiladi, koʻzlaridagi mehr meni tinchlantiradi. Men otamga har doim ishonaman. Uning yonida men oʻzimni baxtli his qilaman. Otam mening orzularim uchun kurashadi. Uning har bir soʻzi yuragimga muhrlangan. Otamning jiddiyligi ortida cheksiz mehr yashiringan. Uning

sogʻligi men uchun eng aziz neʼmatdir. Men otamning niyatlari pokligiga doim ishonaman. Otam mening eng yaxshi yoʻlboshchi qahramonimdir.

Qadrlı otam, uning mehr-muhabbatiga qancha taʼrif aytsak kam boʻladi. Bu qadrlı inson har doim men uchun ilhom manbai boʻlib, hayotdagi yulduzim otam, uning qimmatli soʻzi va rahnamoligi bilan har bir muammolar yechim topadi. Zero, otalar barcha farzandlar uchun eng yaxshi oʻrnakdirlar. Otamning birgina pandu-nasihatı men uchun butun bir darslikdan ham qadrlı. U kishi menga yaxshi inson boʻlish, birovga ozor bermaslik, halol yashash va mehnat qilishni oʻrgatadi va men uning har bir harakatidan ibrat olaman. Men kelajakda qanday yutuqlarga erishmay, otamning duo va mehrini yaqindan his qilaman. Otamning nasihatları meni toʻgʻri yoʻlga boshlaydi. Uning iboralarida katta hayot tajribasi bor va u kishining duolari menga najot beradi. Darhaqiqat, otamning menga boʻlgan ishonchi tufayli, 2023-yil Oʻzbekiston davlat sanʼat va madaniyat instituti “Kutubxona-axborot faoliyati” taʼlim yoʻnalishiga oʻqishga kirdim. Ota farzand uchun faqat boqib, tarbiyalovchi emas, balki hayotning ogʻir burilishlarida suyanch boʻladigan ustun, qalbgaga taskin beradigan tayanch, toʻgʻri yoʻlni koʻrsatuvchi yoʻlboshchi qahramondir.

Inson ulgʻaygan sari otaning koʻrsatmalari, nasihatları va pand-nasihatları hayotiy haqiqatga aylanadi. Ota oilaning boshligʻi, mehr va masʼuliyat timsoli sifatida farzandlariga halollik, sabr-toqat, mehnatsevarlik va insoniylik kabi fazilatlarni oʻrgatadi. Hayotning har bir sinovida otaning fikri oʻzgacha oʻringa ega boʻlib, farzand har qanday qarorni qabul qilayotganda otasining aytgan soʻzlarini eslaydi. Bu esa, ota va farzand oʻrtasidagi ruhiy

2025-yil dekabr
№ 12 (151)

MAFTUNA TOXIROVA,
“Kutubxona-axborot faoliyati”
taʼlim yoʻnalishi 2-bosqich talabasi

bogʻliqlikning naqadar mustahkam ekanini koʻrsatadi. Ota farzandları uchun doimo fidoyilik qiladi, ularning xavfsizligi va baxtini oʻylaydi. Ota mehnati, tirishqoqligi va hayotiy tajribasi farzandning hayotga boshqacha nigoh bilan qarashga oʻrgatadi. Inson uchun aynan otaning yonida oʻzini himoyalangandek, kuchga toʻlgandek his qilishi tabiiy holatdir. Chunki ota oilaning poydevori, uning barqarorligini taʼminlovchi asosiy ustun hisoblanadi.

Farzand ulgʻayib, hayotda oʻz oʻrnini topganida ham otaning oʻrni beqiyosdir. Uning maslahati har doim zarur boʻlib turadi. Ota aytgan soʻzlar, bergan tarbiya va oʻrgatgan odatlar hayoti davomida yoʻldosh boʻladi. Ota farzandga nafaqat moddiy, balki maʼnaviy boylik ham beradi. Hayotning murakkab pallalarida otaning soʻzlari va duosi insonni toʻgʻri yoʻlga boshlaydi. Ota mehrining chuqurligi shundaki, u farzandi uchun hatto imkonsizdek tuyulgan ishlarni ham bajarishga tayyor turadi. Bu esa, otalik burchi va masʼuliyatining ulkanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Ota soʻnggi nafasigacha bolam deydi. Aynan shuning uchun ota siymosi xalqimizda doimo ulugʻlangan, hurmat qilinib, eʼzozlangan.

Otaning farzandga boʻlgan mehr-muhabbati cheksizdir. Dunyoga kelganimizda eng koʻp xursand boʻlgan zot, azizimiz, bizning baxtimizni oʻz baxtidan ustun deb bilgan insondir. Zotan, ota farzandining tarbiyasiga diqqat bilan qaraydi. Oʻzi istagan fazlu kamolni farzandiga berishga, uni oʻzidan koʻra mukammal qilib yetishtirishga gʻayrat qiladi. Bu maqsadi yoʻlida har qanday mashaqqatga bardosh beradi. “Tarbiya qilgan otasiga rahmat!”, - degan olqishni eshitishni, farzandi orqali naslining davom etishini orzu qiladi. Mana shunday ulugʻ zot otalarimizga hurmat koʻrsatish, ularning roziligini olish har bir farzandning zimmasidagi burch va masʼuliyat hisoblanadi.

Ota bosh boʻlgan oilalarda tarbiyalangan bolalarda otadan ijobiy maʼnodagi hayiqish, uni hurmat qilish hissi shakllangan boʻladi. Mana shu “chizilgan chiziq” dan nariga oʻtishidan, hayotimizda qabul qilingan turli ijtimoiy meʼyorlarni buzishidan va oʻz navbatida, turli ijtimoiy muammolarga duchor boʻlishidan saqlab turadi. Afsuski, ayrim oilalardagi otalar farzandlariga biror masalada ibrat boʻla olmaydilar. Bunday otalar bola tarbiyasi bilan umuman shugʻullanmaydilar, oilada hamma masʼuliyat ayol kishining zimmasiga yuklanadi. Masalan, ishdan kelib, kino koʻrishdan hech boʻshamaydigan yoki kunda mast holda kelib, turli tomoshalarni koʻrsatadigan yoxud choyxona-yu oshxonadan beri kelmaydigan erkak oʻz bolasiga nimani oʻrgatadi? Farzandini boʻlar-boʻlmasga jerkiydigan, oʻgʻillarining koʻnglini vayron qiladigan, sindiradigan, oʻzidan uzoqlashtiradigan otalar ham uchraydi. Oqibatda bunday tarbiya va muhitda ulgʻaygan oʻgʻil, ming afsuski, koʻp hollarda oʻta qoʻpol inson boʻlib yetishadi.

Ota oilaning ichki tartib-intizomini saqlash, odob-axloqni mustahkamlash, oilani turli tajovuzlardan muhofaza qilish, oilani moddiy jihatdan taʼminlash kabi huquq va majburiyat-larni zimmasiga olishi kerak. Shuning uchu ham oilaning boshqa aʼzolari oila boshligʻi boʻlgan otaga soʻzsiz va toʻla boʻysunishlari shart hisoblangan. Otangizni qadriga yeting! Zero, ota – sizni shunchaki borligingiz uchun butun umr yaxshi koʻradigan inson. Ota – Allohdan keyingi eng yaxshi suyanchiq, maslahatchi, eng yaqin doʻst va beminnat ulugʻ inson. Otalarimizdan Alloh rozi boʻlsin!

SEHRLI OʻRMON

Yakshanba kuni edi. Tabiat qoʻyniga chiqish oʻzgacha zavq bagʻishlaydi. Shu bois, bobom va men qushlarning ovozi eshitish, dam olish maqsadida oʻrmonga bordik. Oʻrmonga eltuvchi yoʻl faqatgina temir yoʻl edi. Aslida, temir yoʻldan yurish xatarli, ammo bobom temir yoʻlda ishlagani sababli, unga ruxsat berilgan edi...

Tabiat naqadar chiroyli! Oyogʻimiz tagidagi qoʻziqorinlar koʻrpa toʻshalgandek qalin edi. Biz oʻrmonga kirib borar ekanmiz, yon atrofigimizni qushlarning sayrashı hamda talaygina daraxtzorlar kutib oldi. Bir tomonda yer zavol boʻlgan barglar bilan toʻlgan, bir tarafda esa, endigina barg chiqara boshlagan

qayin kurtakları xushboʻy hid taratib turibdi. Yaqin oradan poyezdning chinqirigʻi eshitildi. Poyezd bizga yaqin kelganida, bobom qoʻliga shlyapasini olib silkitib qoʻydi. Poyezd haydovchisi bobomni tanir ekan, u ham qoʻl koʻtarib qoʻydi. Poyezd katta tezlik bilan oʻrmon ichiga kirib ketdi. Biz yana yoʻlimizda davom etdik...

Vokzalga yaqin joyda biz daryo tomon burildik va biroz daryo boʻyida suvning ovozi tingladik. Suvda atrofdagi changalzorlarning surati aks etib turar va yoqimli shabada esardi. Bobom bolaligida shu yerdagi qoyalarga oʻtirib, kun boʻyi baliq ovlagani, ammo baʼzida bir dona ham baliq tutolmaganini,

aytib berdi. Uzoq vaqt qirgʻoq boʻylab sayr qildik. Bobom negadir juda xotirjam edi. Men esa, qorongʻulikdan qoʻrquv bilan atrofga qarardim. Temir yoʻlda borar ekanmiz, tunning tubsizlikka kirib borayotgan edik. Men bobomga yopishib, pichirladim:

– Bobo, qorongʻu tushganda nega hamma narsa bunchalik qoʻrqinchli?

– Nega unday deysan, bolam? Bu hech ham qoʻrqinchli emas, deya javob berdi bobom.

Koʻkka boʻy choʻzgan daraxtlarning shoxlari xuddı arvohek osmonga choʻzilgandi. Qorongʻulik tomon kirib borganimiz sari yuragim siqilardi. Bir payt orqamizdan daxshatli shovqin eshitildi. Qoʻrquv tuygʻusi juda kuchli edi. Bobom meni chekkaga tortib olganicha qotib qoldi. Biz turgan joydan katta tezlikda shovqin solganicha poyezd oʻtib ketdi.

– Poyezd boʻlishi mumkin emas, –

Quvondiq YUSUPOV,
Sanʼat jurnalistikasi
taʼlim yoʻnalishi
2-bosqich talabasi

dedi bobom. – Hozir hech qanday poyezd yurmasligi kerak. Uning katta dvigateli olovdek yonar edi, kimdir belkurak bilan tinmasdan unga koʻmir solardi. Poyezd haydovchisi faqat toʻgʻriga qarardi, boshidagi shlyapasi qoshini berkitib turardi. Axiri u zulmat ichiga yoʻqolib ketdi.

Biz esa, voqeadan ajablangancha uyga shoshildik. Ertasi kuni bobom bu poyezd haqida stantsiyasidan soʻragan, lekin stantsiyada hech qanday poyezd oʻtmaganini taʼkidlagan. Aytishlaricha, xalq orasida bu poyezd haqida rivoyatlar yurar ekan.



YUKSAK ISTE'DOD SOHIBI

Har bir yurtning ma'naviy qiyofasi, ruhiy boyligini yaratuvchi insonlar orasida yuksak iste'dodi va sidqidildan mehnati bilan e'tirofqa sazovor ijodkorlar alohida o'rin tutadi. Qodir Mirzayev shunday zabardast san'at ahlidan biri, sahna sirlarini yurak qoni bilan boyitgan inson. U sozanda, honanda, dirijyor rejissyor, pedagog, musiqashunos, suhandon, mehribon ustoz hisoblanadi.

Qodir Toirovich Mirzaevning hayoti va ijodiga nazar tashlasak. Ustozim 14 yoshidan boshlab, umrini san'atga bag'shida etgan buyuk shahs Q.Mirzaev 1947-yil 2-yanvarda Toshkent shahrida dunyoga keldi. 1961-1966-yillar H.H.Niyoziy nomidagi musiqa bilim yurtida, 1966-1971 yillar Toshkent davlat konservatoriyasida xor dirijyorligi mutaxassisligi bo'yicha tahsil oldi. 1971-1972 yillar harbiy ashula va raqs ansanblida xizmat qildi. 1972-1976

yillarda O'zbek davlat akademik xor kapellasida bosh xormester lavozimida ishladi. 1972-yilda Qozog'istonda bo'lib o'tgan O'zbek adabiyoti va san'ati dekadasi jamoa bilan birga qatnashadi. 1973-yil O'zbekiston bo'yicha gastrol konsert chiqishlari bilan jumladan, Farg'ona vodiysi, 1974-yili Turkmaniston Respublikasi bo'ylab Ashxobod, Chorjo'y, Toshovuz, Mari shaharlarida faoliyat ko'rsatadi.

Yoshlar ijodidan

1976-yil fevral oyida "Shodlik" ashula va raqs ansanbliga bosh xormester lavozimida ishladi. Ish faoliyati davomida yangi dastur tayyorlanib, O'zbekiston o'yingohlarida katta konsert dasturlari uyushtiriladi. Q.Mirzayev jamoa bilan qatnashib, ushbu konsertda rejissyorlik faoliyati bilan ham shug'ullanadi. Mazkur konsertlarda "Shodlik", "Lazgi", "Go'zal" kabi ashula va raqs ansanblarida yakkaxon xonandalar bilan umumiy dastur rejasini tuzishda hissasini qo'shgan.

1976-yilning oktyabr oyidan boshlab, A.Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat instituti "Xor dirijyorligi"bo'limida katta o'qituvchi lavozimida mehnat faoliyatini davom ettiradi.

1980-1986 yillar Yunusobod tumanidagi 70-o'rta maktabda bolalar xor jamoasini tashkil qilib, ushbu xor jamoasi shahar va respublika san'at bayrami ko'rik tanlovlarida oliy o'rinlarga ega bo'ladi.

Toshkent davlat madaniyat instituti "Nihol" talabalari xor jamoasi bilan 1979-yildan buyon har yili Toshkent davlat konservatoriyasida bo'lib o'tadigan xor festivalida Q.Mirzayev o'zining yangi dasturlari bilan qatnashib, tinglovchilarning olqishlariga sazovor bo'lgan.

1990-yil xalq ijodi yo'nalishi bo'yicha respublikada g'oliblikka ega bo'lib, Butun ittifoq xor festivaliga yo'llanmani qo'lga kiritadi va Rossiyaning Saratov shahrida bo'lib o'tgan Butun ittifoq xor festivalida qatnashadi. Ushbu festivalda jamoa laureat diplomiga sazovor bo'ladi va jamoa Butun ittifoq televedeniyasida o'zining konsert dasturlari bilan chiqishlar uyushtiradi.

Jamoa 1996-yili "O'zbekiston vatanim manim" birinchi ko'rik-tanlovida ishtirok etib, faxrli 3-o'rin sovrindori bo'ladi. 2001-2002 yillar Toshkent davlat madaniyat institutida ishlash bilan bir qatorda, O'zbek davlat akademik xor kapellasida ham badiiy rahbar va bosh dirijor lavozimida ishlab keladi.

2005-yil 17-mayda Toshkent davlat madaniyat instituti "Nihol" talabalar xori bilan H.A.Abdurasulov nomidagi Samarqand kollejida konsert dasturini namoyish etdi

2025-yil dekabr
№ 12 (151)

DILNOZA KARIMOVA,
"Madaniyat va san'at sohasi menejmenti"
mutaxassisligi
1-bosqich magistranti

va talabalar tomonidan qizg'n qarshi olindi.

Q.Mirzayev rahbarlik qilayotgan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "Nihol" talabalar xor jamoasi har yili Toshkent shahrining 22, 23-bolalar uylarida, Toshkent shahar qariyalar uyida hamda Rossiya – O'zbekiston madaniy-ma'rifiy hamkorlik jamiyati bilan uyushtiriladigan konsertda va boshqa bayramlarda o'zlarining yangidan-yangi konsert dasturlari bilan tinglovchilarni hushnud qilib kelmoqda.

Qodir Mirzayev oliygohimizdagi ish faoliyatini olib borayotganiga 50 yil to'ladi. U butun umrini xalq ma'naviyati va san'at ravnaqiga bag'ishlagan, sahnani qalb gulshaniga aylantira olgan buyuk ijodkor.

2026-yil 2-yanvar kuni ustozimiz muborak 79 yoshni qarshi olishi munosabati bilan tabriklab, quyidagi she'rni bag'shida etaman.

USTOZ

Bilmaganni menga bildirgan,
Bor qobiliyatni, menga singdirgan,
Bizlar uchun doim qayg'urgan inson,
Ustoz shogird an'anasi etadi davom.

Mehnatingiz samarasi qolmagay bejiz,
Bizlar uchun hamisha bo'lgansiz xolis,
Bizga ilm sirlarini qilyapsiz in'om,
Ustoz shogird an'anasi etadi davom.

Ustozim deb faxr ila, olaman tilga,
Sizdan olgan bilimimni saqlagum dilga,
Biz erishgan yutuqlarda bo'ling siz birga,
Otamdayin ulug' bo'lgan ajib bir inson.
Ustoz shogird an'anasi bo'lsin bardavom.

MUMTOZ MUSIQA SAN'ATI ASOSIDA

ma'naviy tarbiya berishning zamonaviy yondashuvlari

◀ Boshlanishi 1- betda

Shu bilan birga, asarlardagi ramziy ma'nolarni anglash jarayonida nutq madaniyati, fikrlash, tahlil qilish ko'nikmalari ham rivojlanadi.

Zamonaviy yondashuvlarning eng muhim xususiyati shundaki, ular o'quvchini jarayonning faol ishtirokchisiga aylantiradi. Mumtoz musiqa yordamida ma'naviy tarbiya berish jarayonida faqat tinglash yoki yodlash emas, balki o'quvchining musiqani his qilishi, tahlil qilishi, undagi ma'nolarni izlash va shaxsiy fikr bildirish jarayoni ustuvor bo'lmoqda. Masalan, maqom yo'llarini tinglash mobaynida o'quvchilarga shu musiqaning tarixiy ildizlari, undagi falsafiy g'oyalar, ohanglar uyg'unligidan kelib chiqadigan ruhiy holatlarni sharhlash topshirig'i beriladi. Bu esa musiqani faqat san'at namunasi sifatida emas, balki ma'naviy tarbiyaning kuchli manbai sifatida idrok etishga yordam beradi.

Mumtoz musiqa asosida ma'naviy tarbiya berishning yana bir zamonaviy yo'nalishi – interaktiv metodlardan foydalanishdir. "Aqliy hujum", "Bahs-munozara", "Konseptual tahlil", "Klaster", "Rol o'ynash", "Loyihaviy

topshiriqlar" kabi usullar orqali o'quvchilar musiqaga faol munosabat bildiradilar. Masalan, maqom matnlaridagi ramziy obrazlarni guruhlariga ajratish, ulardan chiqadigan g'oyalarni muhokama qilish, qadimiy she'riy matnlar bilan bog'lash kabi jarayonlar ma'naviy fikrlashni chuqurlashtiradi. Sahnalashtirilgan kichik epizodlar, mumtoz kuylarni she'riy ifoda bilan uyg'unlashtirish esa, o'quvchilarda milliy san'atga qiziqish uyg'otadi.

Zamonaviy ta'lim jarayonini texnologiyalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bugungi yoshlar axborot texnologiyalari bilan yaqin bo'lganlari uchun mumtoz musiqani ular ongiga yetkazishda raqamli yondashuvlar samarali natija beradi. Masalan, onlayn darslar, mobil ilovalar, maqom maktablari haqida animatsion videolar, ustoz san'atkorlarning videodarslari, 3D audio yozuvlar, bularning barchasi mumtoz san'atni oson, qiziqarli va tushunarli shaklda yoshlar ongiga singdiradi.

Mumtoz musiqani adabiyot, tarix, san'atshunoslik fanlari bilan bog'lab o'qitish o'quvchining dunyoqarashini kengaytiradi. Masalan, Alisher Navoiy, Jomiy, Ogahiy g'azallari asosida yaratilgan kuylar o'quvchini she'riyatning teran ma'nolarini anglashga undaydi. Tarix darslarida

maqom maktablarning shakllanish bosqichlarini o'rganish esa musiqiy merosning qaysi tarixiy davr, qanday sharoitda vujudga kelganini tushunishga yordam beradi. Bu yondashuvlar ma'naviy tarbiya jarayonini yanada mazmunli qiladi.

Mumtoz musiqa yoshlarning ruhiy salomatligi uchun ham muhim omildir. Zamonaviy psixologik tadqiqotlar maqom tinglashning tinchlantiruvchi, hissiy holatni me'yorlashtiruvchi va stressni kamaytiruvchi ta'sirini tasdiqlaydi. Shuningdek, ayrim ta'lim muassasalarida ma'naviy-psixologik profilaktika sifatida "Musiqiy relaksatsiya" mashg'ulotlarida mumtoz kuylar qo'llanilmoqda. Bu jarayon o'quvchilarning ruhiyatini barqarorlashtiradi, ularning diqqatini oshiradi va o'qishga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytiradi.

Umuman olganda, mumtoz musiqa san'ati asosida ma'naviy tarbiya berishning zamonaviy yondashuvlari yoshlarning ichki dunyosini boyitadi, ularda milliy o'zlikni anglashni mustahkamlaydi, ma'naviy qadriyatlarga sadoqatni kuchaytiradi. Mumtoz musiqa – bu o'tmishdan meros bo'lib qolgan bebaho boylikdir. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar – yangi avlod ongiga zamonaviy, qiziqarli va ta'sirchan usullarda yetkazishga xizmat qilmoqda. Natijada, yoshlar badiiy-estetik didga ega, ma'naviy barkamol, milliy merosga hurmat ruhida ulg'ayadi.

Muassis: O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Bosh muharrir Baxtiyor YAKUBOV		Tahrir hay'ati: Hamdam ISMOILOV, Oybek DAVLATOV Muharrir: Dilnoza QURBONOVA Sahifalovchi: Abdug'ani SODIQOV	Tahririyat manzili: 100164 Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Yalang'och mavzesi, 127 A uy. Telefon: (71) 230-28-03. (71) 230-28-13. www.dsmi.uz; nashriyot@dsmi.uz	O'lchami – A3, hajmi 4 bosma taboq. Gazeta 30.12.2025-yilda topshirildi.
				Gazeta Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasida № 02-00166 raqami bilan 2012-yil 19-dekabrda ro'yxatga olingan. Gazeta elektron ko'rinishda havola etilmoqda